



BOLALARDA TUNGI ENUREZ SABABLARI VA DIANOSTIKASI

¹Shaxnoza Shavkatova Po'lot qizi

Buxoro davlat universiteti Amaliy psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: shahnozashavkatova20@gmail.com

²Otabek Nabijonov Ganiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi

magistranti. E-mail: otabeknabijonov96@gmail.com

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i03-p1-01>

ARTICLE INFO

Received: 20th February 2023

Accepted: 28th February 2023

Online: 02nd March 2023

KEY WORDS

Enurez, nevrosteniya, patologiya, diagnostika, urolog, tashvish, stress, poliuriya, diurez.

ABSTRACT

Ushbu maqolada tungi enurez haqida batafsil ma'lumotlar yoritib berilgan. Enurezning kelib chiqish sabablari, zararli ta'sirlari va diagnostikasi tushuntirilib berilgan. Enurezdan dorilarsiz xalos bo'lish usullari keltirilgan.

Kirish

Enurez o'zi nima?. Enurez necha yoshdan boshlab vujudga keladi?. Enurezning paydo bo'lish sabablari nima?. Bu kabi savollar juda ko'p ota-onalarni qiziqtirib va tashvishga solib kelmoqda.

Enurez - bu 5 yoshdan katta bolalarda "tagini ho'llab qo'yish"i hisoblanadi. Ushbu holat 2-3 yoshgacha yo'qolib borishi lozim, ammo, yo'qolmagan hollarda profilaktik choralar ko'rilishi lozim. Bolada enurez holati kuzatilganda ko'pchilik ota-onalar urologga murojaat qilishadi. Ammo, avvalambor, bolani nevropatolog ko'rigiga olib borish lozim. Enurezning kelib chiqish omillari;

- Bosh miyada qozg'alish va tormozlanish jarayonlarining sustligi;
- Tunda siydik miqdorining ko'payishi;
- Qovuq hajmining kichikligi;
- Uyqudan uyg'onishning buzilishi;

Xulosa va misol sifatida buzilishning quyidagi sabablarini aniqlash mumkin

- ✓ Tanishlik: agar oila a'zolaridan biri yoki bir nechtasi enurezdan aziyat chekkan yoki azob chekayotgan bo'lsa, ko'pincha buzilishning rivojlanish tendentsiyasi mavjud;
- ✓ tashvish, stress kabi hissiy va / yoki psixologik muammolar;
- ✓ uyqu buzilishi: siydik chiqarish istagiga javob berish uchun uyquning muayyan bosqichlarida uyg'onish qiyinligi; adenoid gipertrofiyasidan kelib chiqadigan uyqu apnesining mavjudligini ham o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan sifatsiz uyqu (adenoidlar hajmining oshishi, havo yo'llarining obstruksiyasiga olib kelishi mumkin; tahr.)
- ✓ poliuriya: anormal va ortiqcha siydik ishlab chiqarish;
- ✓ diurezni tartibga solish mexanizmlarining kechikishi, masalan, endokrin kasalliklar, bu antidiuretik gormon vazopressin (yoki ADH) etishmovchiligiga olib kelishi mumkin, bu uyqu



paytida ishlab chiqarilgan siydik miqdori kunduzgiga qaraganda ancha kichik bo'lishiga olib keladi;

- ✓ qovuqning to'liq rivojlanmagan yoki kechikishi va uning sig'imi;
- ✓ siydik yo'llarining anatomik-funksional disfunktsiyalari;
- ✓ siydik yo'llari infeksiyalari;
- ✓ siydik pufagining haddan tashqari faolligi;
- ✓ asab va mushak tizimining muammolari va yoki buzilishlari;
- ✓ qandli diabet;

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda enurezning nevropatologik sababi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining sustligi hisoblanadi. Tunda uxlab yotgan bolaning qovug'ida siydik to'planib, qovuqning ichki devorida joylashgan baroretseptorlar qo'zg'alishadi va bu qo'zg'alishdan vujudga kelgan signallar tos funksiyalarini nazorat qiluvchi markazlarga borib qayta ishlanadi va bosh miya yetkaziladi. Bosh miyaga yetkazilgan informatsiya sintez bo'lolmasligi natijasida orqa miyaga javob yetib bormaydi. Bu qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining sustligidan dalolat beradi. Orqa miya javob ololmaganidan so'ng to'lgan qovuq bilan "til biriktirib" siydik chiqariladi. Uxlab yotgan bola to'shagini ho'llab qo'yadi. Yengilroq turida bola teriga namlik tegishi natijasida uyg'onib ketadi. Enurezning og'irroq turlarida esa bola nam taglikda uxlayveradi.

Enurez bilan kasallangan ko'pchilik bolalarda nevrosteniya belgilari aniqlanadi. Ayrim bolalar esa jismonan zaif bo'lishadi.

Xulosa: Enurezdan aziyat chekayotgan bolalarning ko'pchiligi toza havoda kam bo'lishadi va jismonan zaif bo'lishadi. Ular ko'p vaqtini telefon, kompyuter va televizor qarshisida o'tkazishadi. Enurezni davolashda va umuman qayta uchramasligi uchun bolani yoshligidan sport bilan mashg'ul qilish kerak. Ayniqsa oyoq va bel sohalari mushaklari va nervlarini faollashtiruvchi mashqlar bilan muntazam shug'illanishlari lozim. Bunday mashqlar tos sohasi bilan bo'g'liq a'zolarining orqa miyadagi o'choqlarining qo'zg'aluvchanligini oshiradi va faoliyatini kuchatiradi.

References:

1. Z.Ibodullayev "Asab va ruhiyat" Toshkent: "Sharq", 2019. 18-b
2. P.Bregg, P.Bregg "Urologiya xastaliklari va davolanish choralari"
3. Н.А.Лопаткин "Урология" 2006
4. S.X.Al-Shukri "Urologiya" 2012
5. <https://library.adti.uz/>
6. <https://uz.warbletoncouncil.org/>
7. <https://ussur-ds106.ru/>
8. <https://avitsenna.uz/>